

**MARKAZIY OSIYO MUSIQA SAN'ATINING ILDIZLARI VA  
RIVOJLANISH BOSQICHLARI**

***F.Karimjonova***

*NamDU magistranti, tel: +998939131677*

***Anotatsiya:*** Ushbu maqolada Markaziy Osiyo musiqasining eng qadimgi davrlardan to XVI asrgacha davrdagi rivojlanishi va IX-XVI asrlarda Sharq allomalarining musiqa nazariyasi va musiqa ilmiga qo'shgan hissasilari haqida ma'lumotlar berilgan.

***Kalit so'zlar:*** Musiqa, sozanda, mumtoz, zardusht, qo'shiq, sharq, san'at, Avji turk, haft parda.

Musiqa san'ati eng qadimgi davrlardan Markaziy Osiyo hududlarida yashab kelgan xalqlar madaniyatining ajralmas qismi hisoblangan. Uning yo'nalishlari, janrlari, shakllari o'zbek xalqining ajdodlari bo'lmish hozirgi O'rta Osiyo, Afg'oniston, Pokiston, Eron va Sharqiy Turkiston hududida yashagan qadimgi sug'diylar, xorazmiylar, parfiyaliklar, baqtiriyaliklar ijodiy faoliyati va tafakkurining mahsuli sifatida asrlar davomida shakllanib taraqqiy etib kelgan. Shuningdek, bu san'at turining rivojlanishiga Xitoyning shimoliy chegaralaridan to sharqiy Yevropagacha cho'zilgan ulkan mintaqaning dasht, o'rmon-dasht, tog'li o'lkalarida yashagan (skif, savromat-sarmat, sak-massaget) xalqlarning ta'siri ham nihoyatda katta bo'lganligini hisoblovchi dalillar yetarli [1; 8-b.].

Musiqa san'atining tarixiy shakllanish jarayoni dastlab, tabiat hamda tevarak-atrofdagi sodir bo'layotgan voqea-hodisalarni tushunishga harakat qilishga bo'lgan ehtiyoj sifatida ilk mifologik tasavvurlar ta'siri ostida kechib, keyinchalik kohinlar boshchiligida o'tkaziladigan turli marosimlarning ruhiy-ma'naviy o'tkaziladigan turli marosimlarning ruhiy-ma'naviy oziq mazmuniga aylangan.

Musiqa san'atini takomillashuvi shaharlar madaniy hayotining rivojlanishi bilan bog'liq bo'lib, uning ildizlari eramizdan avvalgi ikkinchi ming yillik oxiri va

birinchi ming yillik boshlariga borib taqaladi. Ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishi, turli xil kasb-hunarlamining pay do bo'lishi va taraqqiyoti, xalq bayramlari, diniy marosimlar, shuningdek, saroydagi har xil tadbirlarni o'tkazish uchun xizmat qiluvchi maxsus tayyorgarlikni o'tagan kishilar, ya'ni, musiqachilar qatlamining shakllanish jarayonini tezlashtiradi. Umumiy maqsad asosida birlashgan musiqachilar, sozandalar, raqqosalar qo'yinki, butun san'at ahli, ajdodlari tomonidan qoldirilgan. Musiqiy-ma'naviy merosni o'rganib, boyitib uni ustoz-shogird an'analari davom ettirgan holda keyingi avlod vakillariga yetkazish yo'lida jonbozlik ko'rsatishgan.

O'rta Osiyo xalqlari ma'naviyatining shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatgan ilmiy-tarixiy, diniy-falsafiy va axloqiy-ta'limiy asoslar, avvalo, Zardusht tomonidan yaratilib, shakllangan zardushtiylik ta'limoti bilan aloqador [1; 11-b.].

Zardushtiylik ta'limotining muqaddas kitobi hisoblangan "Avesto" bitiklarida ilgari surilgan g'oyalar esa ajdodlarimiz hayoti, turmush tarzi, urf-odatlar, diniy e'tiqodi va aqidalarini o'zida mujassamlashtirgani shubhasizdir.

Zardushtiylik ta'lim jarayoni yakunida egallashi shart bo'lgan bilimlar qatorida musiqa bilimi, musiqiy madaniyat yo'nalishi ham asosiy o'rinlardan birini hisoblangan.

O'rta Osiyoda musiqa madaniyatining rivojlanishi va nomoyon bo'lishining muhim qirrasini harbiy qo'shin, muntazam armiya faoliyati bilan bog'liq holda nomoyon bo'ladi.

Tarixdan ma'lumki, eramizdan oldingi VII asrdayoq ajdodlarimiz o'zlarining aniq qoida-qonunlariga bo'ysungan, tuzulma sifatidagi muntazam armiyaga ega bo'lgan. Turli xil turdagi qo'shinlardan tuzilgan armiya tarkibida harbiy musiqachilar ham alohida o'rin egallagan. Plutarx parfiyaliklar armiyasida qozonsimon urma zarbli asboblardan keng foydalanilgani to'g'risida hikoya qiladi.

Eramizning IV asridan boshlab Markaziy Osiyoda quldorlik tuzumi asta-sekin feodal tuzum bilan almashdi. Markaziy Osiyoda yashagan turklar o'z davlatining so'nggi qismini - qo'qonlik deb atay boshladilar [5; 18-b.]. Ana shu vaqtdan boshlab turklar bilan mahalliy Sharqiy Eron xalqlarining qo'shib yashash

jarayoni boshlanadi. IV-VII asrlargacha bo'lgan davr madaniyat va san'at turlarining, jumladan, musiqa bo'yida yuqori darajada rivojlangani bilan xarakterlanadi.

VII asrga kelib arablarning Markaziy Osiyoga qilgan harbiy yurishlari ta'sirida ulkan hududlarning bosib olinishi va ushbu hududlarda islom dinining yoyilishi natijasida xalqimizning islomgacha bo'lgan davri musiqa san'ati bosqichi nihoyasiga yetdi.

Butun Sharqqa mashhur bo'lgan va keyinchalik Sharq adabiyoti mumtoz asarlarida tasvirlangan Markaziy Osiyoning yirik sozanda va xonandasi, o'nlab kuylar ijodkori Borbad (yoki Faxshobod)ning nomi mashhur bo'ldi. Borbad (arab manbalarida Fahlabad Marviy taxminan 581- 628/38 Marv) – atoqli sozanda, xonanda, shoir va bastakordir. Dastlab, ijro va ijod sirlarini o'z otasidan o'rgangan, Marvga ko'chib, bu yerdagi mashhur ustozlarga shogird tushgan. Keyinchalik (618-28 yillar) Sosoniylar davlati shohi Xusrav II Parviz saroyida xizmat qilgan. Borbad madhiya va tarixiy qo'shiqlar, harbiy g'alabalar to'g'risida qo'shiqlar ijod etgan [2; 98-b.].

Tasviriy san'atning ko'p sonli obidalarini mazkur davrning qurollari va musiqa ishtirokidagi urf-odatlarini to'g'risida ma'lumotlar beradi. Qadimgi Panjikentdan topilgan yorqin naqshlar ana shular jumlasidandir. Unda ikki tomonli nog'ora va doira jo'rligida raqsli sahna, sopol idishda daf marosimida ayol kishining marosim raqsini ijro etib turgan payti gavdalantirilgan yorqin tasvir uchraydi. Kumush laganga ov manzarasi, ashula va raqs ishtirokidagi ziyofat naqshlangan [6; 144-b.].

Mahalliy aholi musiqa hayotining ba'zi elementlarini meros qilib olganlar. Keyinchalik «Kitobi Ko'rqu» sikliga kirgan ko'pgina epik turk afsonalari Markaziy Osiyo xalqlarida eposning shakllanishiga ta'sir ko'rsatdi.

Shunday qilib, xalq ijodi va mahalliy ustozlarning an'ana kelajakda og'zaki an'anadagi yirik professional asarlar tug'ilishi uchun asos bo'lib xizmat qildi.

Ayrim keng tarqalgan maqom kuy tuzilmalarining turkcha, masalan, «Avji turk» deb atalishi ham bejiz emas. Ehtimol, vafot etgan kishining jasadiga tepasida turib maxsus aytuvchilar tomonidan deklamatsion xarakterda marsiya aytib yig'lash

odati qadimgi turk qabilalaridan qolgandir. Ehtimol, o'zbek baxshilari turk xalq xonandaazonchilarining ijodiga mansub ifoda uslublariidan foydalangandir, zeroki buni o'zbek folklorining rang-barangligi, uning kuy, lad va ayniqsa, ritmik tuzilishida ko'rish mumkin [3; 46-b.].

Shunday qilib, VII-VIII asrlarga kelib mahalliy musiqa an'analari aniq bo'lib qoldi, xalq va professional musiqaning og'zaki an'analari shakli vujudga keladi.

VI-VII asrlarda yashab ijod etgan ilk kasbiy musiqashunoslardan biri O'rta-Osiyolik Borbad xaqida ma'lumotlarda uni musiqa san'atining asoschilaridan bo'lib, bastakorlik, shoirlik, sozandalik va hofizlik borasida tengi yo'q mashhur san'atkor bo'lganligi ta'riflanadi. Borbad qator madhiya va tarixiy qo'shiqlar, harbiy mavzudagi taronalar ijod etgan. Shunisi muhimki, Borbad xalq kuylari asosida o'sha davrda kasbiy musiqachilik an'anasini boshlab bergan, ijrochilik mahoratida yuksak salohiyatga erishgan san'atkor edi [7; 3-b.].

Shu bilan birga Borbad "Ustoz-shogird" an'anasini boshlab bergan murabbiy ham bo'lgan. Sosoniylar sulolasi (milodiy 224-651yy) davrida kasbiy cholg'uchi-sozandalardan Noqus, Romtin, Sarkab, Sarkash, Navogar va boshqalar Borbad musiqa maktabida saboq olib, so'ngra uning an'alarini yuksak san'at, mahorat, iste'dod bilan davom ettirganlar [7; 3-b.].

O'sha davrdan boshlab, ming yildan ko'proq vaqt mobaynida O'rta Osiyoda musiqa san'ati islom tamadduni zaminida taraqqiy etgan. Arab istilosining ilk davri (VIII – IX asrlar) O'rta Osiyodagi qadimiy musiqiy an'alarining yangi islom nafosati talablariga moslashuv va qayta shakllanish bosqichi bo'lgan. Bu jarayon musiqa madaniyatining turli jihatlari – sozgarlikdan tortib to ijrochilikkacha, kuylash san'atidan harbiy va saroy musiqasigacha bo'lgan sohalarni qamrab olgan.

Arablar kirib kelguniga qadar Movarounnahr, Xuroson va Eronda mavjud bo'lgan ohanglar tizimi «haft parda» – XI – XII asrlar davomida yetti pardadan o'n ikki pardaga ko'tarilgan [4; 76-b.]. U xalifalik shaharlaridagi hukmdorlar saroyi va zodagonlar qatlamidagi musiqa ijrochiligida yetakchi mavqega ega bo'lgan.

IX-XII asrlarda Movarounnahrda madaniyat, ilm-fan, san'at va adabiyot

Islom madaniyati yoʻnalishida rivojlandi hamda taraqqiy etdi. Bu davrda Ahmad al-Fargʻoniy, Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Ismoil al-Buxoriy, At-Termiziy, Abdullo Roʻdakiy, Abdulqosim Firdavsiy, Ahmad Yassaviy, Yusuf Xos Hojib, Najmiddin Kubro kabi yuzlab fozil-donishmandlar yashab, ijod qildilar. Zabardast daholar-jahon ilmi, madaniyati yulduzlari qoldirgan ulkan meros hanuzgacha oʻz ahamiyatini yoʻqotgan emas. Donishmandlarning falsafiy-estetik qarashlari taʼlimotlar tarzida shakllanib, borliqni mushohada etishda, nafosat (estetik) qadriyatlarni baholashda, inson maʼnaviy kamolotida ulkan ahamiyat kasb etadi.

Sharq allomalari musiqa ilmi rivojlanishiga IX-XVI-asrlarda, ayniqsa musiqa nazariyasi va musiqada shakllar masalasi muammolarini yechish borasida ulkan hissa qoʻshdilar. Musikashunoslik, uning nazariyasi va amaliyoti bilan shugʻullanib ulkan tarixiy musiqiy-pedagogik meros qoldirdilar. Buyuk ajdodlarimiz Muso Muhammad al-Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Muhammad Zamaxshariy, Mirzo Ulugbek, Ali Qushchi, Qozizoda Rumiy, Alisher Navoiy va boshqa allomalarning durdona asarlari nafaqat oʻzbek xalqi, balki jahon fani va madaniyatining ham ajralmas qismi ekanligi bunga yaqqol misoldir [8; 321-b.].

Abu Nasr Farobiy (toʻliq nomi Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad Uzalik ibn Tarxon al-Forobiy) (milodiy 873 yil) da Shosh-Toshkentga yaqin Forob (Oʻror) degan joyda harbiy xizmatchi oilasida tugʻilgan. Forobda boshlangʻich taʼlimni olgach, Shoshda, Buxoroda, Samarqandda taʼlim olganligi haqida maʼlumotlar bor. Farobiy Bogʻdodda matematika, mantiq, tibbiyot, ilmi nujum, musiqa, tabiiyot, huquq, tishunoslik bilan shugʻullangan. Avval Oʻtrorda, boʻlib, soʻngra Bogʻdodga borib unda falsafa, tabiiyot, musiqa fanlari bilan chuqur shugʻullangan.

Xulosa sifatida shuni qayd etish kerakki, Oʻrta asr falsafiy fikr taraqqiyoti mutaffakkir Abu Nasr Forobiy nomi bilan bogʻliq boʻlib, uning inson kamoloti haqidagi taʼlimoti taʼlim-tarbiya sohasida katta ahamiyatga ega.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. B.X.Madrimov. O'zbek musiqa tarixi. O'quv qo'llanma.- T.: «Barkamol fayz media», 2018, - 120 b.
2. I. Ganiyeva. Sharq xalqlari musiqa tarixi. Darslik. Toshkent-2021, 180-b.
3. Иброхимов О. Макам и космос. -Ташкент: Санъат, 2010.
4. История узбекской советской музыки. Вип.3. -Ташкент: изд.
5. им. Г.Гуляма, 1974, 210
6. O'zbekiston musiqiy merosi Rossiya Federatsiyasi to'plamlarida. V tom 2020-yil. 472 b.
7. Asqarov A. O'zbekiston xalqining tarixi. 2-T. "O'qituvchi", 1993
8. N. Nurillayeva. O'rta osiyo xalqlari XVI asrgacha davrdagi musiqa ilmining rivoji. INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY. 2023, №5
9. N. Oblomurodov, A. Hazratqulov, F. Tolipov, N. Tursunov. O'zbekiston tarixi. O'quv qo'llanma. Toshkent-2011 yil. 349 b.

**Vebsayt**

1. <https://society.uz/uz/culture/6>
2. o-rta-osiyo-xalqlari-xvi-asrgacha-davrdagi-musiqa-ilmining-rivoji%20(1).pdf